

## Fonetika Qoidalar va urg'u,tutuq belgisi,bo'g'in yuzasidan test.

1.Tilning fonetik vositalariga nimalar kiradi?

- A)nutq tovushi,urg'u,intonatsiya B)fonema,urg'u,bo'g'in  
C)pauza,urg'u,melodika D)nutq tovushi,urg'u,pauza

2.Ber va bo'r so'zlaridagi fonemalarning birlashtiruvchi belgisi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A)til oldilik B)til orqalik C)lablanganlik D)keng unlilik

3.Bu yerlarga kelganimdan so'ng yuragimda insonlarga bo'lgan muhabbat yanada yuksaldi.

Ushbu gapda ikki til oldi,jarangli undosh va til oldi unlisidan tashkil topgan yopiq bo'g'in necha marotaba ishtirok etgan?

- A)3 B)4 C)5 D)bunday bo'g'in aks etmagan.

4.**Telefaks.** Ushbu so'zning yopiq bo'g'inidagi tovushlarga to'g'ri berilgan ta'rifni belgilamang.

- A)bu bo'g'inda 2 sirg'aluvchi ishtirok etgan.  
B)Bu bo'g'inda bitta portlovchi til tovushi uchraydi.  
C)bu bo'g'inda sirg'aluvchi jarangsiz tovushlar 2 bor ishtirok etgan.  
D)bu bo'g'inda ikki sirg'aluvchi lab tovushi bor.

5.**Aviatsiya** so'zida urg'u nechanchi bo'g'inga tushadi?

- A)1 B)2 C)3 D)4

6.So'z urg'usi haqidagi noto'g'ri fikrni belgilang.

- A)so'z urg'usi bevosita so'zga aloqador bo'lgan bo'g'inlardan biriga tushadi.  
B)so'z urg'usi gapga aloqador bo'lgan so'zlardan birining ma'nosini farqlash vazifasini bajaradi.  
C)Turkiy tillarda asosan dinamik urg'u uchraydi.  
D)So'z urg'usi ma'no farqlash vazifasini bajarmaydi.

7.Kelasi darsimizda butunlay adabiyot darsi o'tamiz.

Ushbu gapdagi ochiq bo'g'inlar haqidagi noto'g'ri hukmni belgilang.

- A)Ushbu gapda z tovushining jarangsiz jufti til oldi unli bilan uch marta ochiq bo'g'in hosil qilgan.  
B)Ushbu gapda jarangli juftiga ega undoshlar lablanmagan unlilar bilan 5marta ochiq bo'g'in hosil qilgan.  
C)Ushbu gapda ochiq bo'g'inlarning hech birida chuqur til orqa tovushi ishtirok etmagan.  
D)Ochiq bo'g'inlar tarkibidagi jarangli tovushlar til tovushlaridir.

8.Urg'usi birinchi bo'g'inga tushgan so'zlarni belgilang.

1.ehtimol.2.ammo.3.dotsent.4.muhim.5.obraz.6.parta.7.antenna.8.gazeta.

- A)1,2,4,6 B)1,2,5,6 C)1,2,5,7 D)1,2,6,8

9.1.Bu buyumlar do'konga hozir keldi.2.Hozir zamon boshqa,inim.3.Yangi tufli oyoqni biroz siqdi.

4. Pul bor joyda doim hozir. 5. Bu mollar do'konimizga yangi keldi.

Ushbu gaplardan urg'u ma'no farqlash natijasida ravish sanalgan so'zlar qatnashgan javobni belgilang.

A)2,4,5 B)1,2,5 C)1,4,5 D)1,2,4

10. programma so'zida urg'u nechanchi bo'g'inga tushadi.

A)1 B)2 C)3 D)urg'u olmaydi

11. Erkin urg'u orqali ma'nosi farqlanishi mumkin bo'lgan so'z qatnashgan javobni belgilang.

A)Uyimiz don-dunga to'lsin doim. B)Bir shu'la miltirar uzoqdan.

C)Kunda bir so'zni ming bor eshitdim. D)Kelasi safar bu ishni qilma.

12. Talabalik zahmatining cheki, chegarasi, o'lchovi yo'q, azizlarim.

Ushbu gapda ochiq bo'g'inlar tarkibidagi tovushlar haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

A)Qorishiq undosh ikki bora keng unli bilan ochiq bo'g'in hosil qilishda qatnashgan.

B)Ushbu gapda ochiq bo'g'inlardagi unlilar til va lab undoshlari bilan bo'g'in hosil qilgan.

C)unlilar 13marta til undoshlari bilan bo'g'in hosil qilgan.

D)Til oldi undoshlari til orqa unlisi bilan ikki bora bo'g'in hosil qilgan.

13. Tutuq belgisi ma'no farqlamaydigan so'z qatnashgan javobni belgilang.

A)A'lo mamlakatning a'lo farzandi. B)Rivojlanish jadal sur'atlarda bormoqda.

C)Uzoqdan bir shu'la miltirar asta. D)San'at o'yin deding, San'at o'yinmas.

14. Urg'usi ikkinchi bo'g'inga tushadigan so'zlar qatnashgan javobni belgilang.

1. allakim. 2. yaqin. 3. dotsent. 4. matematika. 5. yayra. 6. fontan. 7. romandan

A)1,2,5 B)3,4 C)3,6 D)1,3,7

15. Suyanmang baland deb ko'ksini kergan,

Tuproqning ustida tog'lar omonat.

Ushbu she'riy parchadagi yopiq bo'g'inlar haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

A)she'riy parchada burun tovushlari yopiq bo'g'in tarkibida 7marta qatnashgan.

B)she'riy parchada ishtirok etgan toq jaranglilar va yopiq bo'g'inlar soni bir-biriga teng.

C)she'riy parchada yopiq bo'g'inlar tarkibida til oldi undoshi hisoblanmagan undoshlar soni 14ta.

D)she'riy parchada 7ta yopiq bo'g'in til oldi undoshlari bilan tugagan.

16. Urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan so'zlarni belgilang.

A)barcha, muhit, rector, nafis B)zero, yaxlit, muhit, zavqim

C)ma'zur, mohir, nafis, silos D)qaysi, yaxlit, sintaksis, leksiya

17. Urg'u ikkinchi bo'g'inga tushgan so'z ishtirok etgan gap qatnashgan javobni belgilang.

A)Poyezd yangi yo'ldan ilgarilab bormoqda.

B)Proza nihoyat gazetada e'lon qilindi.

C)Oblast har kimga texnika bergan bo'lsa.

D)Kimdir bu yolg'onchilikdan uyaldi.

18.Urg'usi birinchi bo'g'inga tushgan qaysi so'zning yopiq bo'g'ini til oldi tovushlaridan iborat.

A)Nafis B)yangra C)ba'zan D)mudir

19.Urg'u olmaydigan shakllarsiz yozilgan so'zlar qaysi gapda qo'llangan.

A)Bu barchamizga birdek tegishli masala. B)Uyimizga ham yaqin qoldi.

C) kitoblaringiz ukamda,do'stim. D)Bu qiyin masalani mengina ishlay olaman.

20.Kartina, rektor so'zlarida urg'u qaysi bo'g'inga tushadi.

A)har ikkisida birinchi bo'g'inga B)har ikkisida ikkinchi bo'g'inga.

C)birinchi so'zda ikkinchi, ikkinchi so'zda birinchi bo'g'inga.

D)birinchi so'zda birinchi, ikkinchi so'zda ikkinchi bo'g'inga tushadi.

21.Urg'u haqidagi noto'g'ri hukmni belgilang.

1.Turkiy tildagi so'zlarda urg'u barqaror o'ringa ega. 2.Aslo, tezda so'zlarida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. 3.ko'makchilar urg'u olishi mumkin. 4. beshta so'zida urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi.

5.kelsin so'zida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. 6.urg'u yordamida ma'nosi farqlanadigan so'zlarga akademik, hozir, turk, yangi so'zlari misol bo'la oladi. 7.qahramonlarcha so'zida urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi.

A)1,4,5,7 B)1,3,4,6 C)1,3,4,5,6 D)1,3,4,6,7

22.Har qanday nutq tovushining nechta tomoni mavjud.

A)2 B)3 C)1 D)4

23.Aka-uka so'zida urg'u qaysi so'zning qaysi bo'g'iniga tushadi.

A)1-so'zning 1-bo'g'ini B)1-so'zning 2-bo'g'ini

C)2-so'zning 1-bo'g'ini D)2-so'zning 2-bo'g'ini

24.Olmoshning ma'no turlarida urg'u nechanchi bo'g'inga tushadi?

A)1 B)2 C)urg'u olmaydi D)urg'u ularda ko'chib yuruvchi urg'u hisoblanadi.

25.Urg'usi ikkinchi bo'g'inga tushgan so'zlarni belgilang.

1.kofe .2.obraz.3.mumkin.4.hamisha.5.sanatoriya.6.lampa.7.ahil.8.muhim

A)1,3,4,7 B)3,4,5,8 C)3,4,7,8 D)2,4,7,8

26.Monografiya so'zida urg'u nechanchi bo'g'inga tushadi.

A)1 B)2 C)3 D)4

27.1.bolamday.2.lekin.3.qip-qizil. 4.radio. 5.hamma. 6.albatta. 7.matematika.

8.afsuski. 9.respublika

Yuqoridagi so'zlardan urg'usi 2 bo'g'inga tushadigan so'zlarni belgilang.

A)1,3,6,8 B)2,3,4,5 C)1,6,8,9 D)1,4,6,9

28.Urg'u haqida noto'g'ri hukmlarni toping.

1.So'roq olmoshlari qaysi qismdan kelishidan qat'i nazar mantiqiy urg'u oladi.

2.Agar urg'u olgan so'z qalin harflar bilan yozilgan bo'lsa-da kesim oldida kelishi shart.

3. Bugunoq bajarilsin soʻzida urgʻu bugunoq soʻzidagi 3-boʻgʻinga tushadi.
4. Na qilay, doʻstlar, onamsiz toʻyib boʻldi gapidagi onamsiz soʻzining 3-boʻgʻini urgʻuli hisoblanadi.
5. Oʻnlarcha soʻzida urgʻu 3-boʻginga tushadi.
6. Men sizni akamdek koʻraman gapidagi akamdek soʻzida urgʻu 2-boʻgʻinga tushadi.
7. Bu ishchi amakim boʻlishadi gapida ishchi soʻzida urgʻu 1-boʻgʻinga tushadi.  
A) 1,2,35 B) 2,3,5,7 C) 2,3,4,7 D) 1,3,5,7
29. Urgʻu haqidagi toʻgʻri hukmlarni toping.
1. Onaginam, siz kutgan kunlar keldi gapida onaginam soʻzining 4-boʻgʻini urgʻuli hisoblanadi.
2. Soʻroq olmoshlari qaysi qismdan kelishidan qatʻi nazar mantiqiy urgʻu oladi.
3. Yigirma olti sonida birinchi soʻzning birinchi boʻgʻini urgʻuli holatda.
4. Men sizni akamdek koʻraman gapidagi akamdek soʻzida urgʻu 2-boʻgʻinga tushadi.
5. Qoʻrqqoq oldin musht koʻtaradi gapidagi qoʻrqqoq soʻzidagi 1-boʻgʻin urgʻuli hisoblanmaydi.
6. Varaqlarni sana gapidagi sana soʻzidagi 1-boʻgʻin urgʻuli hisoblanmaydi.  
A) 1,3,4,5 B) 1,2,3,4 C) 2,4,5,6 D) barchasi toʻgʻri hukmlardir.
30. Qay bir yuraklarda qolarmiz mangu,  
Ezgu hislar uchun umrimiz garov.  
Ishqning eski dardi mangulik ogʻu,  
Balki, bu dunyoda eng qattol sinov.
- Ushbu sheʼriy parchada haqidagi toʻgʻri hukmni belgilang.
- A) 16ta ochiq boʻgʻin til undoshlari yordamida tuzilgan.
- B) 3ta soʻzdagi qator undoshlardan biri boʻgʻinlar natijasida qator undoshligini yoʻqotgan.
- C) 9ta soʻz faqat jaranglilardan tarkiblangan.
- D) 4ta soʻzning yopiq boʻgʻinida 2tadan jarangsiz tovushlar ishtirok etgan.

Ushbu testlarni yechishdan avval qay darajada tayyorlanishingiz kerakligini juda yaxshi tushunib olasiz degan umiddaman, boʻlajak talabalar.  
Keyingi testlargacha omad!!!

*Ishonch — abadiyat eleksiri, yoʻqdan bor qilguvchidir. Bakhtiyorova D*